

**2025–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida bachadon bo‘yni va
ko‘krak bezi saratonini nazorat qilish davlat dasturini amalga oshirilishi
monitoringi va baholash natijalari**

2025 YIL HISOBOT

2025 yil

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Strategik rivojlanish va islohotlar agentligining Natijalarga erishish loyiha ofisi*

QISQARTMALAR

AQSh	Amerika Qo‘shma Shtatlari
BBS	Bachadon bo‘yni saratoni
IGK	Immunogistokimyo
ITB	Islom Taraqqiyot Banki
KBS	Ko‘krak bezi saratoni
KOFIH	Korea Foundation for International Healthcare
MKTP	Markaziy ko‘ptarmoqli poliklinikalar
NNT	Nodavlat notijorat tashkiloti
OPV	Odam papillomasi virusi
PZR	Polimeraz zanjirli reaksiya
PQ	Prezident qarori
RTJ	Radioto‘lqinli jarrohlik
SRIA	Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi
SSV	Sog‘liqni saqlash vazirligi
YuNFPA	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi

HISOBOT TAYYORLASH GURUHI

Umarova A.F. Strategik rivojlanish va islohotlar agentligining Natijalarga
erishish loyiha ofisi rahbari

Aniyozova D.J. Strategik rivojlanish va islohotlar agentligining Natijalarga
erishish loyiha ofisi jamoat salomatligi mutaxassisi

REZYUME

Maqsad va metodologiya

Monitoring O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-402-sonli qaroriga muvofiq barchadon bo‘yni saratoni (BBS) va ko‘krak bezi saratonini (KBS) skrining qilish, erta aniqlash va davolash bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini baholash maqsadida o‘tkazildi.

Baholash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi:

1. tibbiy uskunalar bilan ta‘minlanganlik;
2. kadrlar salohiyati va shtat birliklarining taqsimoti;
3. bemorlarni yo‘naltirish (marshrutizatsiya) tizimining faoliyati;
4. laboratoriya xizmatining tayyorgarligi (PZR, suyuq tsitologiya, IGK);
5. skrining registri, «yashil yo‘lak» va kanser-registr faoliyati;
6. etikaviy me‘yorlar va axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishi.

Monitoring O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi tomonidan Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan metodologiya asosida o‘tkazildi.

Natijalar

Oilaviy poliklinikalar

Kuchli tomonlar:

- Odam papillomasi virusiga (OPV) qarshi emlash qamrovi;
- patronaj xizmati bilan ta‘minlanganlik;
- skriningga taklif etish qamrovining yuqori darajasi.

Asosiy muammolar:

- ayollarni skrining va marshrutizatsiya haqida axborot bilan ta‘minlash tizimining barqaror emasligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik rivojlanish va islohotlar agentligi

- ko'krak bezi ultratovush tekshiruvi bo'yicha o'qitilgan shifokorlar (ayniqsa ayol shifokorlar) yetishmasligi;
- ayrim poliklinikalar infratuzilmasining qoniqarsiz holati.

Xulosa: ayollarni muntazam ravishda xabardor qilish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Markaziy ko'p tarmoqli poliklinikalar, Onkonazorat xonalari

Kuchli tomonlar:

- barcha markaziy ko'ptarmoqli poliklinikalarda (MKTP) onkonazorat kabinetlari tashkil etilgan, zarur inventar va sifatli kolposkoplar bilan ta'minlangan;
- skrining registriga kirish imkoniyati mavjud;
- tuman/shahar darajasida BBS va KBS skriningini muvofiqlashtiradi.

Asosiy muammolar:

- ayrim xonalardagi mavjud 2ta kolposkoplarning 1tasidan foydalaniladi, ikkinchisi ishlatilmasligi;
- skrining registri funksiyalarining cheklanganligi;
- mammograflarga tushayotgan yuklamadagi nomutanosiblik;
- BBSni erta aniqlash bo'yicha kolposkopiya usulida dastur mavjudligi;
- «yashil yo'lak» orqali Onkologiya va radiologiya markazi filialiga yuborilgandan keyin ayollarni kuzatish tizimining mavjud emasligi.

Xulosa: BBS va KBS skriningini boshqarish muvofiqlashtirilmagan.

Ona va bola salomatligi markazi filiallari

Kuchli tomonlar:

- barcha filiallarda polimeraza zanjirli reaksiya (PZR) va suyuqlik tsitologiya laboratoriyalari tashkil etilgan;
- PZR va tsitologiya bo'yicha o'qitilgan shifokorlar mavjud;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik rivojlanish va islohotlar agentligi

- halqaro ginekologik saraton uyushmasining kolposkopiya dasturi bo'yicha o'qitilgan master-trenerlar mavjud.

Asosiy muammolar:

- OPV testlarining sezuvchanligi past;
- PZR uskunalarining ishlab chiqarish quvvati past;
- Radioto'lqinli jarrohlik (RTJ) apparatlari va biopsiya uchun asboblarning mavjud emasligi;
- BBS oldi holatlarini tashxislash va davolash muddatlarining uzayib ketishi.

Xulosa: texnik tayyorgarlik yuqori, biroq tashkiliy qarorlar mavjud emasligi sababli amaldagi samaradorlik pasaygan.

Onkologiya va radiologiya markazi filiallari

Kuchli tomonlar:

- yuqori texnologik tibbiy uskunalarning mavjudligi;
- «yashil yo'lak» tizimi tashkil etilgan;
- ayrim hududlarda kimyoterapiya bilan ta'minlanganlik.

Asosiy muammolar:

- «yashil yo'lak» orqali kelgan ayollarning keyingi harakat marshruti to'liq ishlab chiqilmagan;
- IGK uskunalarining ishlamasligi va reaktivlarning yo'qligi;
- qimmatbaho uskunalarning (braxiterapiya) foydalanmasdan turib qolishi;
- biopsiya ignalari yetishmasligi;
- kanser-registr faoliyatini yo'lga qo'yish uchun shtat birliklari ajratilmaganligi;
- kimyoterapiya ehtiyojini hisoblashning samarali usullari mavjud emasligi;
- tibbiy uskunalar, dori vositalari va sarf materiallar logistikasini rejalashtirishning yo'qligi;
- yangi texnologiyalarni joriy etishda etikaviy ekspertizaning o'tkazilmasligi.

Xulosa: onkologiya markazlari jihozlangan, biroq PQ-402-sonli qarorini to'liq amalga oshirish uchun shoshilinch boshqaruv qarorlari talab etiladi.

Yakuniy xulosa

Sog'liqni saqlash tizimi PQ-402-sonli qarorini rasman amalga oshirayotgan bo'lsa-da, amalda uni samarali joriy etishga tayyor emas. Asosiy sabablar bu tashkiliy, boshqaruv va etikaviy muammolar mavjudligi. Aniqlangan muammolar bartaraf etilmasdan PQ-402-sonli qarorini joriy etish quyidagilarga olib kelishi mumkin:

- asossiz tibbiy aralashuvlar sonining oshishi;
- bemorlar huquqlarining buzilishi;
- BBS va KBS bo'yicha davlat skrining dasturining obro'sizlanishi.

Tavsiya

Aniqlangan tizimli, tashkiliy va etikaviy muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish tavsiya etiladi.

KIRISH

2025 yildan boshlab O‘zbekistonda ayollar o‘rtasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan 2025–2030 yillarga mo‘ljallangan yangi Davlat dasturi amalga oshirila boshlandi. Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 22 noyabrdagi PQ-402-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Davlat dasturining asosiy maqsadi — bachadon bo‘yni saratoni va ko‘krak bezi saratonidan o‘lim ko‘rsatkichlarini kamaytirish bo‘lib, bu skrining qamrovini kengaytirish, tashxis qo‘yish sifatini yaxshilash, davolash samaradorligini oshirish, infratuzilma va kadrlar salohiyatini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Dasturning o‘ziga xos jihati shundaki, O‘zbekiston sobiq Ittifoq hududida birinchi bo‘lib odam papillomasi virusi (OPV) testini milliy skrining usulida joriy etdi. 2ta saratonni tashxislash va davolashda ESMO va ESGO xalqaro klinik protokollarini qo‘llashga, shuningdek, onkologik bemorlarni yuritishda multidissiplinar yondashuv joriy etishga qaror qilindi.

Istiqbolda xususiy klinikalarning rolini kengaytirish rejalashtirilgan bo‘lib, ular vaucherli moliyalashtirish asosida skrining, tashxis va davolash xizmatlarini ko‘rsatishda ishtirok etishlari mumkin bo‘ladi. Bu yondashuv aholining keng qatlamlari uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish va sohadagi samaradorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

Davlat dasturining asosiy tamoyillari

1. **Kompleks yondashuv** — saratonining birlamchi profilaktikasidan tortib davolashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Kasallikning oxirgi, davolab bo‘lmaydigan bosqichida bemorlarga palliativ yordam ko‘rsatiladi. Shuningdek, ijtimoiy xodimlar ishtirokida psixologik qo‘llab-quvvatlash va keys-menejment tashkil etiladi.
2. **Skriningni birlamchi tibbiy yordam darajasida tashkil etish** — ikki turdagi ayollar saratoni (BBS va KBS) bo‘yicha skrining joriy etildi, bunda xizmatlar uzluksizligini ta‘minlash maqsadida tor mutaxassislar bilan jamoaviy ishlash yo‘lga qo‘yildi. Birlamchi bo‘g‘indagi onkonazorat kabinetlarida ayollarda ushbu ikki turdagi saratonni skrining qilish uchun mas‘ul yangi alohida ginekolog shtat birligi —joriy etildi.

3. **Zamonaviy skrining, tashxis va davolash usullaridan foydalanish.** BBS uchun skrining usuli tariqasida OPV testi, saralash usuli sifatida esa suyuqlik tsitologiyasi, kolposkopiya tekshiruvlari o'tkaziladi. Diagnostika patomorfologiya orqali amalga oshiriladi. KBSni erta aniqlashda mammografiya usuli, tashhislashda esa patomorfologiya va immunogistokimyo tekshiruvlari bajariladi. Ikkila saratonni davolashda halqaro standartlar - ya'ni ESMO, ESGO protokollaridan foydalaniladi.
4. **Mas'uliyatni aniq taqsimlash** — BBS va KBS skriningi ginekologlar tomonidan amalga oshiradi, onkologlar esa asosan tashxislash va davolash uchun ma'sul.
5. **Kompetensiyalar markazlari.** Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kolposkopiya bo'yicha kompetensiyalar markazi hisoblanadi. Markazda PZR va suyuq tsitologiya bo'yicha referens-laboratoriya tashkil etilgan. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida mammografik tasvirlarni o'qish bo'yicha kompetensiya markazi, ya'ni **Riding-markaz**, shuningdek, epidemiologlar, data-analitiklar va AT mutaxassisleri uchun alohida shtat birliklariga ega **Kanser-registr markazi** tashkil etilgan.
6. **Raqamli platformalar.** Skrining va kanser-registrlar Raqamli texnologiyalar vazirligi, **UZINFOCOM** kompaniyasi va onkologlar guruhi ko'magida ishlab chiqildi. Ushbu tizimlar skrining va davolash jarayonida ayollarning salomatlik holatini samarali monitoring qilishga xizmat qiladi va hech bir ayol kuzatuv tizimidan chetda qolmasligini ta'minlaydi.
7. **Tashqi monitoring va samaradorlikni baholash** — Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi tomonidan chiqilgan tizim doirasida tasdiqlangan aniq indikatorlar asosida amalga oshiriladi.
8. **Ayollar bilan qayta aloqa** — mobil ilova orqali Dastur haqida fikr-mulohazalarni yig'iladi, bemorlar va ularning yaqinlari uchun navigatorlar yaratiladi.
9. **Saratonni nazorat qilish sohasidagi loyihalarni muvofiqlashtirish bo'yicha Kengash.** Kengash tarkibiga davlat organlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, Oliy Majlis qo'mitalari, Fanlar akademiyasi, xalqaro tashkilotlar (JSST, KOFIH, YuNFPA), tibbiy assotsiatsiyalar va xususiy klinikalar ekspertlari kiritilgan. Kengashning asosiy maqsadi — davlat budjeti mablag'lari va xalqaro tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan loyihalarni samarali muvofiqlashtirishdir.

10. **Axborot-targ'ibot kampaniyalarini tashkil etish.** Maqsad xabardorlikni doimiy oshirish orqali aholini Dasturga jalb etish. Ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy akkauntlar ochildi, 2025 yil 25 oktyabrda Toshkent shahrida 400 ga yaqin ishtirokchi qatnashgan «**Erta aniqla — hayotni saqla**» forumi o'tkazildi.

HISOBOTNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Maqsadi

Ushbu hisobotning asosiy maqsadi — 2025–2030 yillarda ayollar o'rtasida onkologik kasalliklarni kamaytirishga yo'naltirilgan Davlat dasturini 2025 yil davomida amalga oshirilishi monitoringi natijalarini tahlil qilish va uni 2026-2030 yillarda samarali tatbiq etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifalari

1. Asosiy indikatorlar bajarilishini tahlil qilish
2. Davlat dasturini amalga oshirishdagi muammolar va to'siqlarni aniqlash
3. Dasturning har bir komponenti bo'yicha xulosalar shakllantirish
4. To'siqlarni bartaraf etish va muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MONITORING METODOLOGIYASI

Bachadon bo'yni (BBS) va ko'krak bezi saratoni (KBS) nazorat dasturi monitoringi va baholash kompleks olib boriladi. Bu o'z ichiga dastur samaradorligi, natijadorligi va sifatini tizimli baholashga asoslanadi.

Monitoring va baholashdan **maqsad** - tizimli ravishda ma'lumotlar yig'ish, ularni tahlil qilish orqali dastur oldiga quygan vazifalarni sifatli amalga oshirishni ta'minlash.

Dasturni baholash 2 tomonlama olib boriladi:

1. Dasturda belgilangan mutassaddi tashkilotlar tomonidan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorining PQ-402 8-bandida dastur monitoringi va uning samaralordigini baholash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tomonidan amalga oshiriladi.
2. Jamoatchilik va Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) tomonidan.

Uslublar. Miqdoriy tahlil usuli, tibbiyot xodimlari, tibbiyot muassasalari rahbarlari, bemorlar va aholi bilan intervyular, monitoring tashriflari, klinikalar auditi, registrlar tahlili qo'llaniladi.

Ma'lumotlarni yig'ish tizimi va manbalari. Ma'lumotlar 3 xil usulda yig'iladi:

1. *Onlayn.*
 - a. *Ma'lumotlar bazalari* - elektron poliklinika, emlash, skrining va kanser registrlardan to'g'ridan to'g'ri ma'lumotlarni olish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Strategik rivojlanish va islohotlar agentligining axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi. Olingan ma'lumotlar real vaqt rejimida dashbordda aks etadi.
 - b. *Veb-anketa* - tibbiyot muassasalarining mas'ul xodimlari Agentlikning Axborot tizimidagi sog'liqni saqlash tashkilotlari uchun tuzilgan veb so'rovnomasini onlayn to'ldirishadi.
2. *Tashriflar.* Monitoring tashriflari rejasiga asosan joylarga tashrif buyurilgan holda indikatorlar yordamida ma'mulotlar yig'iladi. Bu jarayon monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Qo'shimcha ravishda qog'oz manbalardan ma'lumotlar yig'iladi: bemorlarni ro'yxatga olish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik rivojlanish va islohotlar agentligi

jurnali, laborator jurnallar, bemorlar tibbiy kartalari va kasallik tarixlari; shifokorlar, hamshiralar va muassasalar rahbarlari bilan intervyular orqali.

3. *Ijtimoiy so‘rovnomalar.* Aholi orasida, saraton bilan kasallangan ayollar orasida onlayn (telegram chatbot) va fokus guruhlarda intervyu orqali o‘tkaziladi.

Monitoring ob’ektlari. Monitoring Dasturni amalga oshirishda ishtirok etuvchi quyidagi sog‘liqni saqlash muassasalarida olib boriladi:

1. Oilaviy shifokor punktlari
2. Oilaviy poliklinikalar
3. Tuman/shahar ko‘ptarmoqli markaziy poliklinikalar
4. RIOvaBIATM va filiallari
5. RIOvaRIATM va filiallari.

Monitoring muddatlari. Monitoring muddatlari ma’lumot yig‘ish tizimida ko‘rsatilgan usullardan kelib chiqadi (Jadval-1).

	Monitoring usuli	Davriyligi
1	Ma’lumotlar bazasiga kirish	doimiy tarzda avtomatik ravishda amalga oshiriladi (real-time)
2	Tashriflar	har 6 oyda 1 marotaba
3	So‘rovnomalar: - Tibbiyot muassasalarida onlayn tarzda; - Aholi orasida onlayn (telegram chatbot) va fokus guruhlarda intervyular	doimiy tarzda 6 oyda 1 marotaba

Monitoring indikatorlari. Monitoring indikatorlari kiritilgan resurslar, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari va natijlarni baholashda ma’lumotlar yig‘ishga imkon beradi.

1. Tibbiyot muassasalarida infrastruktura va resurslar bilan ta’minot **resurslar indikatorlari** yordamida monitoring qilinadi (2-ilova).
2. Tibbiyot muassasalarida xizmatlar ko‘rsatish jarayoni SSV tomonidan tasdiqlangan klinik protokollarda keltirilgan **jarayon indikatorlar** yordamida monitoring qilinadi.

3. Dastur samaradadorligi **natija indikatorlar** yordamida monitoring qilinadi (3-ilova).
4. Dastur aholi va NNT ishtirokida quyidagi o'lchanadigan **indikatorlar** yordamida monitoring qilinadi:
 - BBS va KBS belgilari, simptomlari va xavf omillari haqida ma'lumotga ega maqsadli guruhdagi ayollar ulushi;
 - Targ'ibot kampaniyalarda ishtirok etgan ayollar foizi;
 - Skriningda qatnashgan ayollar foizi;
 - Saraton bilan kasallangan ayollarning tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan qoniqish darajasi: skrining, diagnostika, davolash, ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam, palliativ yordam kesimida.
 - Saraton bilan kasallangan ayollarning hayot sifati ko'rsatkichi.

Natijalar tahlili va hisobot. Monitoring davomida yig'ilgan ma'lumotlar sifat nuqtai nazaridan saralanadi va tahlil qilinadi. Tahlil natijalari asosida hisobot tayyorlanadi. Hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun resurslar bilan ta'minot (uskuna, sarf vositalari, xodimlar treningdan o'tganligi),
- jarayon sifati (ya'ni, standartlar asosida xizmat ko'rsatilishi),
- natijasi (qamrov, erta bosqichlarda aniqlash, o'lim ko'rsatkichi),
- iqtisodiy samaradorlik tahlili aks ettiriladi.

Natijalarni tarqatish. Asosiy indikatorlar va erishilgan vazifalar bo'yicha davriy (kvartallik, 6 oylik) va yillik hisobotlar tayyorlanadi. Natijalar qaror qabul qiluvchilar (dastur ijrochilari, Muvofiqlashtiruvchi Kengash), tibbiyot xodimlari va jamoatchilik uchun elektron tarzda SSV veb sahifasida va boshqa ma'lumot manbalarida muntazam chop etiladi. Natijalarga asosan zarurat bo'lganda dasturni amalga oshirish rejasiga o'zgartirish kiritiladi.

MONITORING TASHRIFLARI NATIJALARI

2025 yil may oyidan noyabr oyiga qadar monitoring tashriflari mamlakatning quyidagi 8 hududida amalga oshirildi: Toshkent, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona va Andijon viloyatlari va Toshkent shahri.

Monitoring tashriflari Davlat dasturini amalga oshirishda ishtirok etayotgan birlamchi bo'g'indan tortib viloyat darajasidagi ixtisoslashtirilgan markazlargacha bo'lgan 39 ta tibbiyot muassasasini qamrab oldi, jumladan: 10 ta oilaviy poliklinika, 14 ta markaziy ko'p tarmoqli poliklinika, Respublika ixtisoslashtirilgan Ona va bola salomatligi ilmiy amaliy tibbiyot markazining 8 ta filiali (OBSM), Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazining 6 ta filiali (ORM).

Monitoring guruhi 4 nafar mutaxassisdan iborat bo'ldi:

- Agentlikning monitoring va baholash metodikasi bo'yicha treningdan o'tgan 2 nafar xodimi, ulardan biri tibbiyot xodimi;
- tegishli viloyatdagi Sog'liqni saqlash boshqarmasining 2 nafar xodimi: biri nazorat inspeksiyasi bo'limidan, ikkinchisi ichki audit departamentidan.

Oilaviy poliklinikalar

Umumiy holat. Oilaviy poliklinikalar patronaj hamshiralar bilan to'liq ta'minlangan. Patronaj xizmati OPVga qarshi emlashda hamda maqsadli guruhdagi ayollarni BBS va KBS bo'yicha skrining tekshiruvlariga jalb etishda faol ishtirok etmoqda.

Asosiy natijalar

- **OPVga qarshi emlash:** qamrov yuqori (90 % dan ortiq), biroq ishonchli ma'lumotlar bazasini yuritishda muammolar aniqlandi.
- **Kadrlar:** ayol jinsidagi UZI shifokorlari yetishmovchiligi mavjud.
- **KBSni erta aniqlash:** patronaj hamshira tomonidan so'rov o'tkazish, xavfni baholash va klinik palpatsiya amalga oshiriladi; saratoni erta bosqichlarida aniqlangan holatlar mavjud.

Asosiy muammolar

- ayrim binolar kapital ta’mirga muhtoj;
- suv ta’minoti va sanitariya sharoitlarida uzilishlar mavjud;
- ayollarni skrining va patologiya aniqlanganda o‘z vaqtida tashxis qo‘yish bo‘yicha barqaror xabardor qilish mexanizmlari mavjud emas;
- ko‘krak bezlari palpatsiyasini ginekologlar zimmasiga yuklangan, lekin patronaj hamshiralar noto‘g‘ri bajarmoqda (rasmda ko‘rsatilgan).



Markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalar, Onkonazorat xonalari

Umumiy holat. Barcha tekshirilgan MKTPlarda Onkonazorat xonalari tashkil etilgan va asosiy tibbiy jihozlar bilan ta’minlangan. Biroq xonalarning amaldagi klinik faoliyati bir xil emas.

Asosiy natijalar

- **Jihozlanish:** kolposkop (aksariyat xonalarda 2 tadan), kompyuterlar va “Skrining-registr” axborot tizimiga kirish imkoniyati mavjud.
- **Kadrlar:** ginekologlar uchun alohida shtat birliklari ajratilgan, ular faqat Dasturni muvofiqlashtirish uchun mas’ul, biroq kolposkopiya bo‘yicha o‘qitilmagan.
- **KBSni erta aniqlash:** mammoskrining faol o‘tkazilmoqda, ammo ayrim hududlarda me’yoriy yuklama oshib ketgan (kuniga 60 ta o‘rniga 98 ta tekshiruvgacha), ayrim hududlarda esa juda past yuklama kuzatilmoqda, bu mammografiya xonasi xarajatlarini oqlamaydi.

- **BBS skriningi:** barcha ginekologlar PZR tahlil va suyuq tsitologiya uchun namuna olish metodikasi bo‘yicha o‘qitilgan, ammo mavjud tayoqchalar sifatli material olish uchun yaroqsiz, transport muhiti tsitologiya o‘tkazishga imkon bermaydi, bu esa ayolning qaytadan Onkonazorat xonasiga chaqirtirishga sabab bo‘ladi.

Asosiy muammolar

- Aksariyat xonalardagi 2chi ortiqcha kolposkoplardan foydalanmaslik, ularning bekor turishi;
- Tashriflar soni ko‘pligi sabab ayollarni yo‘qotish xavfining juda yuqoriligi (Onkonazorat xonasiga 2 marta va Ona va bola salomatligi markazi filialiga 3 marta tashrif): 1-tashrif — VPCh-test topshirish, 2-tashrif — tsitologiya tahlili topshirish, 3-tashrif — kolposkopiya, 4-tashrif — biopsiya olish, 5-tashrif — saratoldi kasalligini davolash;
- 31–39 va 41–49 yoshli ayollar orasida kolposkopiya va Pap-test usuli bilan BBSni erta aniqlash bo‘yicha parallel dastur mavjudligi. Ushbu dastur uchun “Canser Registr” axborot tizimiga muntazam to‘lov amalga oshiriladi.

Ona va bola salomatligi markazi filiallari

Umumiy xolat. Barcha filiallarda PZR-diaagnostika va suyuq tsitologiya laboratoriyalari, shuningdek kolposkopiya xonalari tashkil etilgan. Jihozlanish darajasi umuman PP-402 talablariga mos.

Asosiy natijalar

PZR-diaagnostika: xonalar va jihozlar mavjud, ammo JSST prekvalifikatsiyasidan o‘tmagan OPV-test tizimlari qo‘llanilayotgani sababli ish cheklangan.

Suyuq tsitologiya: YesPath uskunalari o‘rnatilgan (kuniga 50 ta tahlilgacha).

Kadrlar: PZR va tsitologiya bo‘yicha o‘qitilgan shifokorlar, jumladan viloyat darajasidagi kolposkopiya bo‘yicha master-trenerlar mavjud.

Asosiy muammolar

- sezuvchanligi va unumdorligi past bo‘lgan VPCh test tizimlaridan foydalanish; bachadon bo‘yni saratoni oldi holatlarini tashxislash va davolash uchun ayollarni 3 marta chaqirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik rivojlanish va islohotlar agentligi

zarurati;

- radio-jarroxlik apparatlari va biopsiya asboblarining mavjud emasligi;
- bachadon bo‘ynidan biopsiya olish va patomorfologik tahlilni moliyalash mexanizmlarining noaniqligi.

Onkologiya va radiologiya markazi filiallari

Umumiy xolat. Markazlar IGK, braxiterapiya, kanser-registr kabi yuqori texnologiyali jihozlar bilan ta‘minlangan, ammo resurslarning katta qismi samarali ishlatilmayapti.

Asosiy natijalar

- “Yashil yo‘lak” barcha filiallarda tashkil etilgan, biroq registrlarga kirish imkoniyati yo‘q.
- Kanser-registr: kompyuterlar va xodimlar mavjud, ammo tashkiliy cheklovlar sababli samaradorlik past.
- Davolash: ayrim filiallarda kimyoterapiya qisman ta‘minlangan.

Asosiy muammolar

- mammograflarni ikki smenada ishlatish uchun shtat birliklari yo‘q;
- rentgen-laborantlarning xizmat safari xarajatlari qoplanmaydi;
- “yashil yo‘lak” shifokorlarining skrining-registrga kirish imkoniyati yo‘q;
- biopsiya ignalari mavjud emas;
- IGK apparatlarining bekor turishi va reagentlar xarid qilinmasligi;
- kredit mablag‘lari hisobidan olingan qimmatbaho uskunalarning (bir donasi 363 904 AQSh dollari bo‘lgan braxiterapiya apparati) 6–8 oy davomida hujjatlar yoki sarf materiallar yo‘qligi sababli ishlatilmasligi;
- kanser-registr uchun shtat birligi yo‘qligi sababli 10 ta kompyuterdan faqat 2 tasidan foydalanish;
- zamonaviy davolash usullarini (qo‘riqchi limfa tugunlarini olib tashlash, target terapiya) qamrab olmagan eskirgan klinik protokollar;
- ikki hududda xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda yangi texnologiyalarni etika ekspertizasiz va bemorlarning xabardor qilingan rozilgisiz sinovdan o‘tkazish, jumladan

160 nafar ayol ishtirokida sun’iy intellektli yangi kolposkopiya apparati (Koreya mahsuloti) orqali BBS skriningi o‘tkazish; ayollardan yozma rozilik olinmagan, shaxsiy va tibbiy ma’lumotlar xavfsizligi shubha ostida.



Markaz hovlisidagi braxiterapiya apparatlari

Tizimli muammolar

1. Dasturni amalga oshirishni SSV tomonidan muvofiqlashtirish sust;
2. Tibbiyot xodimlari tomonidan algoritmlar va ayollar marshrutiga rioya etilishini klinik audit qilish mavjud emas;
3. Tibbiyot muassasalari darajasida tibbiy jihozlar menejmenti, sarf materiallari va dori vositalari ehtiyojini hisoblash tizimi mavjud emas;
4. milliy klinik protokollar zamonaviy emasligi;
5. JSST prekvalifikatsiyasidan o‘tmagan OPV test tizimlaridan foydalanish;

JSST prekvalifikatsiyasidan o‘tgan OPV- test tizimi — bu yuqori onkogen xavfli odam papilloma virusini aniqlash uchun mo‘ljallangan laborator diagnostik test tizimi bo‘lib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti prekvalifikatsiya jarayonidan o‘tgan va xalqaro sifat, xavfsizlik, analitik va klinik samaradorlik talablariga, shuningdek bachadon bo‘yni saratonini skrining va profilaktika dasturlarida qo‘llashga mos deb topilgan.

6. Turkiyalik genetik mutaxassisining “Sigmoida” axborot tizimi orqali ayollarning PZR tahlillari bazasiga kirish imkoniyati mavjudligi, bu shaxsiy va tibbiy ma’lumotlar maxfiylikiga tahdid soladi;
7. Ayol marshrutida ginekologlar va onkologlar o‘rtasida kommunikatsiya yo‘q;

8. Mammograflarga yuklama me‘yorlarining oshirilishi yoki bajarilmasligi;
9. Rentgen-laborantlar xizmat safari xarajatlarining qoplanmasligi;
10. Ayollarni skrining va tashxisga chaqirish hamda xabardor qilish tizimi sust; ayrim hududlarda mobil mammografga nisbatan salbiy munosabat shakllangan (uni “saraton chaqiruvchi mashina” deb atash holatlari mavjud);
11. Maqsadli guruh yoshidagi (maktabda kirill alifbosida o‘qigan) ayollar uchun o‘zbek tilida, kirill alifbosida axborot resurslari mavjud emas;
12. Rasman to‘liq tayyorgarlik mavjud bo‘lsa-da, funksional imkoniyatlar cheklangan.
13. Bioetika va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tamoyillari buzilishi.

Xulosalar

Monitoring tashriflari natijalariga ko‘ra, muassasalarning jihozlanish va kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi PQ-402-sonli qarorini amalga oshirish imkonini beradi. Asosiy cheklovlar jihozlar yetishmasligi bilan emas, balki Dasturni amalga oshirish boshqaruvining parchalanganligi bilan bog‘liq.

INDIKATORLAR BAJARILISHINI BAHOLASH

Bachadon bo‘yni saratoni indikatorlari

№	Indikator	Maqsadli ko‘rsatkich	Bazaviy ko‘rsatkich (2024 yil noyabr)	Amaldagi ko‘rsatkich (2025 yil noyabr)
1	Odam papilloma virusiga (OPV) qarshi emlash qamrovi	90%	rasmiy statistikaga ko‘ra 90% dan ortiq; ASR ma’lumotlariga ko‘ra o‘rtacha 45%	90% dan ortiq
2	Bachadon bo‘yni saratoni skriningiga taklif qilish ko‘rsatkichi	90%	—	90,1%
3	Maqsadli guruhdagi ayollarni BBS skriningi bilan qamrab olish	70%	—	32,3% (skrining 2025 yil iyul oyi oxirida boshlangan)
4	Skriningda ishtirok etishdan bosh tortgan ayollar ulushi	20%	—	ma’lumot yo‘q
5	BBS diagnostikasi bilan qamrab olish	90%	kuzatilmagan	0%
6	Skriningdan tashxisgacha bo‘lgan vaqt	30 kungacha	kuzatilmagan	ma’lumot yo‘q
7	Gistologik tasdiqlangan holatlar ulushi	100%	kuzatilmagan	ma’lumot yo‘q
8	Giperdiagnostika/soxta ijobiy natijalar (gistologiya tekshiruvi asosida)	5–10% dan kam	kuzatilmagan	ma’lumot yo‘q
9	Tashxis qo‘yilganidan davolash boshlanganiga qadar vaqt	60 kungacha	kuzatilmagan	ma’lumot yo‘q

10	Davolashni boshlagan bemorlar ulushi	90–95%	kuzatilmagan	ma'lumot yo'q
11	Davolashni yakunlagan bemorlar ulushi	85–95%	kuzatilmagan	ma'lumot yo'q
12	Yosh guruhlari bo'yicha kasallanish	100000 aholiga 4–10 gacha	—	ma'lumot yo'q
13	Kasallik bosqichlari bo'yicha kasallanish	I–II bosqich 60–75%	—	ma'lumot yo'q
14	Yosh guruhlari bo'yicha o'lim ko'rsatkichi	100000 aholiga 2–5 gacha	—	ma'lumot yo'q
15	Interval (oraliq) saratoni darajasi	5–10% gacha	kuzatilmagan	ma'lumot yo'q
16	5 yillik yashash ko'rsatkichi	65–75%	—	ma'lumot yo'q


Ko'krak bezi saratoni indikatlari

№	Indikator	Maqsadli ko'rsatkich	Bazaviy ko'rsatkich (2024 yil noyabr)	Amaldagi ko'rsatkich (2025 yil noyabr)
1	KBS skriningiga taklif qilish ko'rsatkichi	90–95%	100%	100%
2	Maqsadli guruhdagi ayollarni KBS skriningi bilan qamrab olish	70%	—	—
3	Skriningda ishtirok etishdan bosh tortganlar ulushi	20%	—	—
4	KBS diagnostikasi bilan qamrab olish	95%	—	—
5	Skriningdan tashxisgacha vaqt	≤30–60 kun	—	—


6	Gistologik tasdiqlangan KBS holatlari ulushi	100%	—	—
7	Giperdiagnostika/soxta ijobiy natijalar	5–10% gacha	—	—
8	Tashxis qo'yilganidan davolash boshlanganiga qadar vaqt	60 kungacha	—	—
9	Davolashni boshlagan bemorlar ulushi	90%	—	—
10	Davolashni yakunlagan bemorlar ulushi	100%	—	—
11	Yosh guruhlari bo'yicha KBS kasallanishi	—	—	—
12	I–II bosqichda aniqlash	60–75% dan ortiq	—	—
13	Yosh guruhlari bo'yicha o'lim ko'rsatkichi	2030 yilgacha 25–30% ga kamaytirish	—	—
14	Interval (oraliq) saratoni darajasi	20–30% dan past	—	—
15	5 yillik yashash ko'rsatkichi	75–90%	—	—

Tibbiy jihozlar, sarf materiallari va inson resurslari inventarizatsiyasi bo'yicha ma'lumotlarni verifikatsiya qilish

(PQ-402-sonli qarorining 1-ilovasi 3-bandiga muvofiq).




Kartografiya-1: Onkonazorat uchun alohida xonaning mavjudligi



Kartografiya-2: Onkonazorat xonalarida kolposkoplar soni



Kartografiya-3: Skriningdan keyin ayollarni qabul qilish uchun Onkologiya va radiologiya markazi filiallarida «yashil yo'lak»ning mavjudligi



Kartografiya-4: Onkologiya va radiologiya markazi filiallarida biopsiya ignalari mavjudligi

XALQARO HAMKORLIK

2021 yildan boshlab O‘zbekistonda KBS va BBSga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda.

1. JSST loyihasi

«**Bachadon bo‘yni saratonini OPV testi orqali erta aniqlash**» loyihasi JSSTning bachadon bo‘yni saratonini bartaraf etish bo‘yicha global tashabbusi doirasida amalga oshirilgan. Loyiha Yaponiya hukumati tomonidan moliyalashtirilgan. Pilot loyihaning birinchi bosqichi 2021 yil 1 apreldan 2022 yil 30 aprelgacha Chirchiq shahrida (4 ta poliklinikada) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (11 ta poliklinikada) o‘tkazilgan. YuNFPA ko‘magida 2 ta PZR apparati, 6000 ta OPV testlari va 3 ta radiokoagulyatsiya uskunasi xarid qilingan.

Loyiha natijalari va aniqlangan muammolar. 2021 yilda 30–55 yoshli 6 ming nafar ayol OPV usulida skriningdan o‘tkazildi. Ularning 542 nafarida OPV aniqlandi va barchasiga kolposkopiya o‘tkazildi. Ayollarning 3 nafarida saraton aniqlandi (2 ta ayolda bachadon bo‘yni, 1 ayolda bachadon jarrohlik yo‘li bilan olib tashlangan); 5 nafar ayolga bachadon olib tashlash amaliyoti bajarildi; 88 nafar ayol davolandi (71ta ayol termoablyatsiya usulida, 17 tasi diatermokoagulyatsiya usulida).

2024 yilda OPV aniqlangan 549 nafar ayol qayta tekshiruvga taklif qilindi, shularning 408 nafari keldi. 108 ta OPV qayta aniqlangan ayollarning yengil displaziya tashhislangan 26 nafariga termoablyatsiya bajarildi, 86 nafar ayoldan biopsiya olindi. Biopsiya natijasida 3 ta ayolda saraton aniqlanib, bachadon bo‘yni olib tashlandi; 2 nafar OPV aniqlangan lekin displaziya rivojlanmagan (ya’ni xujayralarda shikastlanish aniqlanmagan) ayolning bachadonni jarrohlik usulida olib tashlandi.

2. Islom taraqqiyot banki loyihasi

2024 yil yanvardan boshlab Islom taraqqiyot banki tomonidan 1,300 mln AQSh dollari miqdorida (BBS va KBS komponenti) moliyalashtirilayotgan «**O‘zbekiston Respublikasidagi onkologiya muassasalarini modernizatsiya qilish (II faza)**» loyihasi JSST tomonidan amalga oshirilmoqda (Shartnoma raqami №UZB-1021). Loyiha 2024 yil yanvar oyida qayta imzolangandan 2025 yil

avgust oyiga qadar JSST tomonidan 2 ta baholash tashrifi va 60–100 nafar turli yo‘nalishdagi mutaxassislar ishtirokida 1,5 soatlik 2 ta vebinar o‘tkazildi. Loyiha doirasida BBS uchun 500 ming OPV test tizimlari va 70dan ortiq termoablyator uskunalari xarid qilindi.

Loyiha natijalari va aniqlangan muammolar. Monitoring natijalariga asosan, JSST tomonidan milliy ustuvor yo‘nalishlar inobatga olinmaganligi aniqlandi. Xususan, loyiha BBS va KBS komponentlari doirasida 2025 yil uchun ish rejasi taqdim etilmadi, JSST ekspertlari jamoat salomatligi sohasida tajribaga ega bo‘lganligi sababli klinik kompetensiyani talab etuvchi birorta klinik trening shifokorlar uchun o‘tkazilmadi, mahalliy ekspertlar ishlab chiqqan klinik protokollar bo‘yicha yozma xulosalar berilmadi, xaridlar BBS va KBS bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish Muvofiqlashtiruvchi kengashi bilan kelishilmadi, PQ-402-sonli qarori bilan tasdiqlangan algoritmgaga zid bo‘lgan hamda JSSTning prekvalifikatsiyasiga ega bo‘lmagan OPV test tizimlari foydalanish uchun xarid qilindi va Ona va bola markazi filiallariga taqdim etildi. Natijada, ayollar OPV testi va suyuqlik tsitologiyasi uchun 2 marta Onkonazorat xonasiga tashrif qilishida zarurat tug‘ildi, skriningda OPV aniqlangan ayollarda suyuqlik tsitologiyasi tekshiruvi uchun ortiqcha sarf harajatlarga hamda tsitolog shifokorlar ish yuklamasini oshishiga olib keldi. Shu bilan birga, loyiha doirasida xarid qilingan 70dan ortiq termoablyator uskunalari Onkologiya va radiologiya markazi filiallariga tarqatildi. Qaror bilan tasdiqlangan algoritmgaga muvofiq ushbu termoablyatorlar Ona va bola markazi filiallarida bachadon bo‘yni saratonoldi kasalligini davolashda ishlatilishi ko‘zda tutilgan. Termoablyatorlar onkologlar tomonidan hanuzgacha ishlatilmayapti.

3. KOFIH jamg‘armasi loyihasi

2019–2023 yillarda 3 mln AQSh dollari mablag‘i miqdorida «**O‘zbekistonda OPV diagnostika tadqiqotlarini takomillashtirish**» KOFIH loyihasining birinchi bosqichi Virusologiya markazi tomonidan amalga oshirildi. Loyiha hujjatlariga ko‘ra, 3 ta hududdan 40 ming nafar ayollar ishtirokida OPV testi va tsitologiya tekshiruvi bajarildi. Loyiha Toshkent shahri, Andijon va Samarqand viloyatlarida amalga oshirildi.

Loyiha natijalari va aniqlangan muammolar. Loyihani amalga oshirish uchun Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Etika qo‘mitadan faqat ayollar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish uchun rasmiy ruxsat olingan, ammo amalda so‘rovnomadani tashqari PZR tadqiqoti orqali OPV aniqlash

va tsitologiya tekshiruvi uchun ayollarning bachadon bo'ynidan namunalar olindi. Loyihada, PZR tadqiqotlari uchun jihozlar, shuningdek loyiha davomida ishlab chiqish bosqichida bo'lgan avtomatlashtirilgan suyuqlikli tsitologiya qurilmasi qo'llanildi.

SARATON NAZORATI SOHASIDAGI LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASHNING ROLI

Qarorga asosan, Davlat dasturini joriy etish hamda BBS va KBSni kamaytirishga bag'ishlangan halqaro loyihalarni nazorat etish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Kengash ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtiradi, aprobatsiyadan o'tgan testlar, dori vositalari va xalqaro protokollarning qo'llanilishini ta'minlaydi. Kengash tarkibi ko'p tarmoqli bo'lib, SSV, Prezident administratsiyasi, Senat, Oliy Majlis, Fanlar akademiyasi, xususiy klinikalar, onkologlar va akusher-ginekologlar assotsiatsiyalari, NNT va xalqaro tashkilotlar vakillaridan iborat. Kengash kamida 3 oyda 1 marotaba yig'iladi. 2025 yilda Kengashning 4 ta yig'ilishi o'tkazildi va yig'ilishda monitoring natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi zarur qarorlar qabul qilindi:

1. KBS diagnostikasida IGK tahlilini budjet hisobidan joriy etish;
2. BBS skrining xizmatlarini davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi orqali xarid qilish;
3. ESMO 2024 va ESGO 2024 xalqaro klinik protokollarini joriy etish;
4. AQShda stajirovka o'tagan onkologlardan tuzilgan multidissiplinar jamoa modelini joriy etish;
5. Radiologlarga har bir mammografiya suratlarini o'qish uchun to'lovni yo'lga qo'yish;
6. JSST prekvalifikatsiyasidan o'tgan OPV test tizimlarini xarid qilish;
7. Bioetika standartlarini joriy etish bo'yicha m'yoriy huquqiy xujjatni qabul qili.


ETIKA MASALALARI

O‘zbekistonda xalqaro bioetika standartlari rasman tan olinganiga qaramay, ularni amaliyotga joriy etish qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli sog‘liqni saqlash tizimlari bioetika standartlariga tayanadi, etika fani tibbiyot universitetlari o‘quv dasturiga kiritilgan, jahonning yetakchi ilmiy jurnallari etika ekspertizasidan o‘tmagan tadqiqotlarni nashr etmaydi.

PQ- 402-sonli qarori bilan qabul qilingan ayollar o‘rtasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish Davlat dasturini 2025 yil davomida joriy etish monitoringi quyida keltirilgan etika tamoyillariga zid holatlarni aniqladi.

- 1. Qimmatbaho tibbiy uskunalarni ishlatilmasligi.** Kredit mablag‘lari hisobidan xarid qilingan saratonni tashxislash (IGK apparati) va davolash (braxiterapiya apparati) uchun mo‘ljallangan jihozlarning hududlarda 6–8 oydan 2 yilgacha ishlamay turishi sababli to‘g‘ri tashxis qo‘yish, davolash usulini tanlash (jarrohlik, gormonal yoki kimyoterapiya) va davolashni kechiktirilgan. Oqibatda hududlarda bemorlar poytaxtga borib tashhis va davolanishga majbur bo‘lishgan. Lekin, yo‘lkira va yashash xarajatlarini qoplash imkoniyati bo‘lmagan ayollar kasallik bilan yolg‘iz qolishgan.
- 2. Standartlarga javob bermaydigan test-reagentlar xarid qilinishi.** BBS skriningi uchun kredit mablag‘lari hisobidan xalqaro standartlarga javob bermaydigan OPV test-reagentlar xarid qilingan. Natijada soxta manfiy natijalar sababli ayollarni “o‘tkazib yuborish” (ya’ni, aslida bachadon bo‘yni saratonoldi kasalliklar mavjud bo‘lishi mumkin, lekin test soxta manfiy chiqqanligi sababli suyuqlik tsitologiyasiga yo‘naltirilmagan), soxta musbat natijalarda qo‘shimcha tekshiruvlar uchun ortiqcha xarajatlar qilingan (har bir soxta musbat natija uchun 25 AQSh dollari).
- 3. Yangi tibbiy uskunalar aprobatsiyasi.** “Bepul ko‘rik”, “Xorijiy shifokorlar maslahati”, “Xalqaro grantda ishtirok” shiorlari ostida ayollarda yangi innovatsion tibbiy uskunalarni sinovdan o‘tkazish, bunda sinovda ishtirok etayotgan ayollardan yozma ravishda xabardor qilingan rozilik olinmaganligi, ishtirokchilarning shaxsiy hamda tibbiy ma’lumotlari oshkor bo‘lishi xavfi mavjudligi (masalan, sun‘iy intellektli mobil kolposkop, sun‘iy intellektli portativ mini-mammograf, termoablyator sinamalari ayollarda o‘tkazilgan).

4. **Ma’lumotlarga kirish.** Xorijiy hamkorlarning tibbiy ma’lumotlar va axborot tizimlariga “texnik yordam” ko‘rsatish niqobi ostida kirishi (masalan, PZR laboratoriyalariga o‘rnatilgan Sigmoida ma’lumotlar bazasiga Turkiyadan genetikning kirish huquqi mavjud) yoki bepul dastur taqdim etilishi orqali mammografiya bazasiga AT mutaxassislarini kirishi.



Sigmoida ma’lumotlar bazasi

5. Yangi tibbiy texnologiyalar va uskunalarni sinovdan o‘tkazishni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud emasligi. Tadqiqot ishtirokchilari ilmiy loyihada ishtirok etayotgani haqida to‘liq ma’lumot olmaydi va asoratlar yuzaga kelganda kafolatlangan tibbiy yordamsiz xavf ostida qoladi.

MONITORING NATIJASIDA OLINGAN SABOQLAR

Tizim tayyorgarligi

Monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, PQ-402-sonli qarorini amalga oshirishda ishtirok etayotgan tibbiy muassasalarning aksariyati umuman olganda uskunalar va kadrlar bilan ta‘minlangan. Biroq yagona boshqaruv, rejalashtirish va nazorat tizimining yo‘qligi resurslardan amalda samarali foydalanish darajining pastligiga olib kelmoqda (uskunalarning ishlamay turishi, ayrim xodimlarga ortiqcha yuklamalar, vazifalarning takrorlanishi).

Bemor ayol marshrutining fragmentatsiyasi

Tashxis qo‘yishning ko‘p bosqichliligi (5 tagacha tashrif) va yordam ko‘rsatish darajalari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilmaganlik, ya‘ni skrining, tashxis va davolash bosqichlarida bemorlarni yo‘qotish xavfini oshirmoqda.

Onkonazorat xonalarida 31–39 va 41–49 yoshdagi ayollar orasida BBSni erta aniqlash uchun kolposkopiya usulida, o‘zgarishlar topilgan taqdirdagina Pap-test bajarilishi orqali amalga oshirilayotgan dastur hanuzgacha davom etmoqda, bu algoritmni erta aniqlash dasturi sifatida qo‘llash tavsiya etilmaydi. Ayollarning ma‘lumotlari va ularning kolposkopik tasvirlari “Canser Registr” axborot tizimiga yuklanadi va bu tizim skrining registr bilan integratsiya qilinmagan.

KOFIH jamg‘armasi loyihasi doirasida Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda ikki bosqichli skrining algoritmi OPV testi va suyuqlik tsitologiyasi qo‘llanilgan. Biroq anomal o‘zgarishlar aniqlanganidan keyin ayollarga keyingi tibbiy yordam — kolposkopiya va gistologiya usulida tashxis qo‘yish hamda davolashga yo‘llanma berish ta‘minlanmagan.

Kadrlar kompetensiyasi

Dasturni amalga oshirishdagi asosiy muammolar nafaqat klinik yo‘nalishda (UZI, kolposkopiya, qo‘riqchi limfa tugunlar biopsiyasi amaliyotlarni bajarish), balki jarayonni boshqarish (ya‘ni menejment) sohasida ham bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi, shuningdek, tibbiy uskunalar va sarf materiallarini boshqarish tizimining yo‘qligi hamda rentgen laborantlarga xizmat safari xarajatlarining qoplanmasligi bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Tashxis sifati

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan prekvalifikatsiyadan o‘tmagan OPV test tizimlaridan, shuningdek validatsiya qilinmagan tibbiy texnologiyalardan foydalanish skrining sezgirligini pasaytiradi va qayta tashriflar sonini oshiradi. IGK tahlilisiz ko‘krak bezi saratonini davolash klinik jihatdan asoslilikni shubha ostiga qo‘yadi.

Etika muammolari

Yangi tibbiy texnologiyalarni etika ekspertizasiz sinovdan o‘tkazish, bunda bemor ayollarning xabardor qilingan roziligini olmaslik va shaxsiy hamda tibbiy ma’lumotlarning kafolatli himoya qilmaslik, kredit mablahlaridan xarid qilingan tibbiy uskunalarni ishlatmaslik holatlari aniqlandi. Bu bemorlar huquqlarining buzilishi xavfini, mamlakat obro‘cini xatarga qo‘yish va aholining Davlat dasturlariga bo‘lgan ishonchining pasayishini keltirib chiqaradi.

Xalqaro loyihalarning milliy ustuvor yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashmaganligi

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va ITB ishtirokidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirish milliy organlar bilan muvofiqlashtirishning sustligini, tizimli monitoring va klinik auditning yo‘qligini, shuningdek PQ-402-sonli qarori bilan tasdiqlangan algoritmlarga mos kelmaydigan holatlar aniqlandi.

TAKLIFLAR

Sog'liqni saqlash vazirligi uchun takliflar

1. PQ-402-sonli qarorini amalga oshirish bo'yicha yagona koordinatsiyani yaratish, jumladan:
 - Yillik yagona harakatlar rejasini tasdiqlash;
 - Tasdiqlangan indikatorlar yordamida muntazam monitoring qilish;
 - Algoritmalar va bemor marshrutiga rioya etilishini nazorat qilish uchun klinik auditni joriy etish;
 - Xalqaro loyihalarni qat'iy nazorat qilish va hisobotlarni SSV veb-saytida e'lon qilish orqali shaffoflikni ta'minlash.
2. Zamonaviy tashxis va davolash usullarini inobatga olgan holda milliy klinik protokollarni yangilash (KBSda majburiy IGK tahlili, qo'riqchi limfa tugunlari biopsiyasi va jarrohligi, target terapiya).
3. Kadrlarni o'qitish. Tibbiyot xodimlari uchun klinik treninglar tashkil etish va treninglarda sertifikatlashni joriy etish.
4. Tibbiy uskunalar menejmenti tizimini joriy etish, jumladan:
 - 2026 yildan boshlab faqat validatsiyaga ega tibbiy uskunalarni xarid qilish, milliy skrining doirasida faqat JSST tomonidan prekvalifikatsiyadan o'tgan OPV-test tizimlaridan foydalanishni ta'minlash;
 - Sarf materiallariga ehtiyojni zamonaviy usullarda hisoblash;
 - Tibbiy uskunalar uchun servis xizmatini rejalashtirish;
 - Uskunalarini yetkazish va o'rnatishdan oldin xodimlarni o'qitish va xonalarni tayyorlash.
5. Shaxsiy va tibbiy ma'lumotlarni himoya qilishni kafolatlash, jumladan:
 - Axborot tizimlarini audit qilish;
 - Tizimlarga uchinchi shaxslar kirishini cheklash;
 - Milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga rioya etish.

6. Sog'liqni saqlash tizimiga bioetika standartlarini joriy etish to'g'risida me'yoriy huquqiy xujjatni qabul qilish va Davlat dasturlarini ishlab chiqish, yangi texnologiyalar va pilot loyihalarni joriy etishda ishtirok etuvchi Markaziy bioetika qo'mitasini tashkil etish.
7. Aholi bilan samarali kommunikatsiya olib borish, jumladan:
 - O'zbek tilida (lotincha va kirillcha) axborot materiallarini ishlab chiqish;
 - Dasturni takomillashtirish uchun ayollardan fikr-mulohaza olish imkonini beruvchi mobil ilovalarni joriy etish.

Xalqaro hamkorlar (JSST, ITB, YuNFPA va KOFIH) uchun takliflar

1. Loyihalarni amalga oshirishdan oldin ularni PQ-402-sonli qarori va milliy algoritmlar bilan muvofiqlashtirish.
2. Loyihalarni tasdiqlash uchun Muvofqlashtiruvchi kengashga taqdim etish.
3. Loyihalar bo'yicha monitoring va hisobot yuritish, aniq ish rejalari, muddatlarga rioya etish, mustaqil baholash va natijalarni SSV hamda tashabbuskor veb-saytlarida e'lon qilish.
4. Validatsiya qilinmagan tibbiy texnologiyalar va eksperimental yechimlarni ilgari surishdan voz kechish.
